

## TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA TAVAKKALCHILIKNING O'RNI

**Xasanova Xamida Xaydaraliyeva**

*Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali katta  
o'qituvchisi*

**Tursunsaitov Diyorbek YAKubovich**

*Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali 5-21 KEM  
guruhi talabasi*

**Annotasiya:** *Maqolada tavakkalchilikning mohiyati va uning elementlari haqidagi dolzarb masalalar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, tavakkalchilikning tadbirkorlik faoliyatini rivojlanintirishda tutgan o'rni va uni ijobiy va salbiy ta'siri haqida to'xtalib o'tikgan*

**Kalit so'zlar:** *Risk, tavakkalchilik, tadbirkorlik faoliyati, xalqaro savdo, biznes, iste'molchilar, raqobat.*

Risk - rejalashtirilganidan kam foyda olish yoki natijaning ob'ektiv ravishda aniqlangan noaniqligi tufayli bevosita yo'qotish xavfi. Tavakkalchilik har qanday tadbirkorlik qarorlari va harakatlarining ajralmas elementidir.

«Tavakkalchilik»-xodisasida uning mohiyatini tashkil etuvchi va o'zaro bog'liq bo'lgan quyidagi asosiy elementlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

-sub'ekt tomonidan tanlangan muqobillikni amalga oshirish maqsadida ko'zlagan maqsaddan chekinish mumkinligi;

- sub'ektning ko'zlagan natijaga erishishning extimolligi;

- sub'ektning ko'zlagan maqsadga erishish uchun ishonchsizlik (ishonchning yo'qligi);

- sub'ektning alternativani noaniq sharoitdagi tanlovni amalga oshirish bilan bog'liq moddiy, ma'naviy va boshqa yo'qotishlarning mavjudligi.

Tavakkalchilikning muhim elementlaridan biri bu tanlangan maqsaddan chekinish extimolini borligidir. Tavakkalchilik o'zi insonlarga xos qobiliyatdir, o'ziga xos odatlarni, falsafiy qarashlarni va insonning hayotiga oid yondashuvlarni aks ettiradi. Bu shunchaki inson hayotida bo'lishi kerak bo'lgan omillardan biridir. Bozor iqtisodiyotida ham tavakkalchilikning o'rni katta e'tibor ega, o'ylangan maqsadlar, rivojlanayotgan mamlakatlar va yirik korxonalar uchun juda muhimdir.

Bozor iqtisodiyotida tavakkal tufayli iste'molchilar uchun etarlicha hajmni ko'paytirish mumkin. Tavakkalchilikning o'rni iste'molchilarning sifatli mahsulotlarga ishonch ko'rsatishiga, eng yaxshi narxlarni topishiga, kafolatli xizmatlar olishiga xizmat qiladi. SHuningdek, korxonalar va xususiy tadbirkorlik subektlari o'rtasida ishonch va qarashlarni jalb qilishga va raqobat ko'rsatkichlarini yuksaltirishga yordam beradi.

Tavakkalchilik mohiyati tizimning muhim elementi bo'lib, mamlakatlar va korxonalar uchun muhim asosiy omillardan biridir. Bu yaxshi jihatdan tuzilgan tizimning

ichki va tashqi muvaffaqiyatining har bir bosqichida alohida ahamiyatga ega. Iqtisodiy islohotlar sharoitida tavakkalchilikning o'рни alohida ishlab chiqilgan mahsulotlar, va kafolatli xizmatlar uchun muhimdir. SHuningdek, tavakkalchilikning o'рни korxonalar va tadbirkorlik subektlari uchun juda muhimdir. Bu biznesni rivojlantirish, yangi xarajatlarni kamaytirish, daromadlarni ko'paytirish va mijozlar bilan o'zaro aloqalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari bozor iqtisodiyotida tavakkal qilish mamlakatning xavfsizligi bilan ham bog'liq. Aniq qilib aytganda, iste'molchilar, tijoratchilar va korxonalar bilan o'zaro aloqalarga kirishishadi. Bu aloqalar esa, xavfsizlikni ta'minlash uchun qo'llaniladigan ishonch va tavakkalni oshiradi. Bu tadbirkorlar uchun muhim shartlardan biri bo'lib, barcha bosqichlarda bozor iqtisodiyotining muvaffaqiyati uchun zarurdir.

Bundan tashqari iqtisodiy islohotlar sharoitida tavakkalchilikning o'рни, xalqaro savdo tashkilotlari va ulardagi o'zgarishlar uchun ham lozim. Ularga ishonch ko'rsatish, jalb qilish va raqobatda yuksalishga yordam beradi. Bu ishonch va xavfsizlikning oshirishiga yordam beribgina qolmay, savdo va sotishda qat'iylikni ko'rsatadi va biznesni yanada rivojlantirishda katta rol o'ynaydi.

Qo'shimcha qilib aytganda bozor islohotlari sharoitida tavakkalchilik, korxonalar va iste'molchilar o'rtasidagi ishonchni oshiribgina qolmay, unga keladigan foyda hajmini oshirishga ham katta hissa qo'shadi. Tadbirkorlar uchun biznes davomida inobatga olinishi majbur bo'lgan qismlardan biri tavakkal nafaqat o'zaro kompaniyalararo ta'sir qilibgina qolmay, balki, xalqaro tashkilotlar o'rtasida ham ma'lum bir muvaffaqiyatlar olib kelishi ham ehtimoldan yiroq emasdir.

Albatta, bozor iqtisodiyotida narx, eksport, import, sotuvchi va oluvchilar o'rtasidagi munosabat kabi foyda olishda muhim bo'lgan omillar sirasiga tavakkalchilikni kiritmay bo'lmaydi. SHuningdek tavakkal o'zi bilan birgalikda iste'molchilar e'tiborini o'ziga tortish va mijozlarning qarashlarini inobatga olish ham zarurdir

Iqtisodiy islohotlar sharoitida tavakkalchilikning o'рни biznes rejaning puxtaligiga, uning amalga oshirish imkonining qanchalik kattaligiga ham bog'liqdir. Sababi, hech narsaga amin bo'lmay turib bozor iqtisodiyotida tavakkal qilish yaramaydi. Chunki, aniq maqsadlarga tayangan holda tavakkal qilish, tadbirkorga katta muvaffaqiyatlar va g'alabalar taqdim etishda xizmat qiladi. Bunda korxonalar orasidagi raqobatni engishda va mijozlar uchun keng ko'lamdagi imkoniyatlar eshigini ochishga yordam beradi. Bu esa o'z vaqtida iste'molchilarni o'ziga jalb qiladi va ishonchni oshiradi, natijada yuksalishga olib keladigan raqobatni paydo qiladi. Agarda o'ylangan rejalar amalga ohsa, ko'plab talabgorlar bu sohada o'zlarini sinab ko'ra boshlaydi va davlatning rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shadilar. Bu esa insoniyat va jamiyat uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi bu shaxslar ehtiyojini qondiradi va ba'zi bir muammolar uchun echim bo'lib, jamiyat taraqqiyotida bir necha tizimlar kashf etadi. SHuningdek tavakkal yangi turdagi mahsulotlarning yaratilishiga zamin yaratadi, unga sarf etiladigan resurslar, tovarlar va

xizmatlarni imkon boricha tejamkorlik bilan foydalanishga undaydi. Iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish jarayonida tavakkalga qo'l urish ham ko'zda tutilishi lozim. SHunda korxonada taraqqiyot va yuksalish bo'ladi va uning mustahkamligi ta'minlanadi. SHuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, tavakkal davomida mijozlar ehtiyojini inobatga olish darkordir. Sababi tavakkalchilikda asosiy rolni iste'molchi ijro etadi. YAngi tovarlarni xaridorlarga taqdim etish tavakkal qilishning bir turidir va xaridorlarni o'ziga jalb qilish qobiliyatiga ega. SHu bilan bir qatorda mijozlar tomonidan ko'plab talab va takliflar kelib tushishiga erishiladi. Bu holatda muayyan bir aniq rejaga ega bo'lgan ma'qul. Aks holatda bu mablag' jihatdan zararga olib keladi.

Demak, shu sababli bozor islohotlari sharoitida tavakkal qiluvchi tadbirkorlar o'z faoliyatini ma'lum bir tamoyillarga asoslangan holda yurgizishadi. Bu bilan ma'lum bir yutuqlarga erishishadi.

Har qanday biznes tadbirkorlik tavakkalchiligini o'z ichiga oladi. Xatar kompaniyaga kichik yo'qotishlarga olib kelishi va tuzatib bo'lmaydigan zarar etkazishi mumkin. Biroq, tadbirkor qonunda ko'rsatilgan holatlarni sug'urta qilishi va bu juda muhim bo'lgan tadbirkorlik risklarini o'z vaqtida tanib olishni va ularni to'g'ri tahlil qilishni o'rganish orqali ularni kamaytirishi mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Гранатуров В.М. Экономический риск: сущность, методы измерения, пути снижения: Учебное пособие / В.М.Гранатуров. М.: "Дело и Сервис", 2002. 150 с.
2. Хасанова Хамида Хайдаралиевна. Хавф даражасини баҳолаш усуллари. Журнал «Интернаука» № 18 (147), часть 3, 2020 г.
3. Л.Н.Тэпман: "Риски в экономике".-М:"ЮНИТИ-ДАНА", 2002.
4. Е.В.Цветкова: "Риски в экономической деятельности".-СПб.: "ИВЭСПЭ", 2002.
5. Зайнутдинов Ш. "Риск менеджмента", Учебное пособие.- Т.: "Iqtisod-Moliya", 2007.